

**“TASDIQLANGAN”**  
“O‘zbekiston ipotekani qayta  
moliyalashtirish kompaniyasi” AJ  
Aksiyadorlarning navbatdan  
tashqari umumiy yigilishining  
2025-yil 20-fevraldagi qarori bilan

**“O‘ZBEKISTON IPOTEKANI QAYTA MOLIYALASHTIRISH KOMPANIYASI”**  
**AKSIYADORLIK JAMIYATI**  
**IJROIYA ORGANI TO‘G‘RISIDAGI NIZOM**  
(yangi tahrirda)

**Toshkent sh – 2025 y.**

## **MUNDARIJA:**

- I. UMUMIY QOIDALAR .....**Ошибка! Закладка не определена.**
- II. BOSH IJROCHI DIREKTORNI SAYLASH (TAYINLASH) VA UNING  
VAKOLATLARINI TUGATISH TARTIBI .....**Ошибка! Закладка не определена.**
- III. JAMIYAT BOSH IJROCHI DIREKTORINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI  
4
- IV. JAMIYAT BOSH IJROCHI DIREKTORINING JAVOBGARLIGI **Ошибка! Закладка не определена.**

## **I. UMUMIY QOIDALAR**

1. Mazkur Nizom "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" Aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda – "Jamiyat") Ijroiya organi maqomini belgilaydi va uning faoliyatini tartibga soladi.

2. Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik yakka Ijroiya organi – Bosh ijrochi direktor tomonidan amalga oshiriladi, uning vakolatlari Jamiyat Ustavi va mazkur Nizom bilan belgilanadi.

3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga asosan Jamiyat Ijroiya organi vakolatlari shartnoma bo'yicha tijorat tashkilotiga (ishonchli boshqaruvchiga) topshirilishi mumkin. Tuziladigan shartnoma shartlari, Jamiyat Ustaviga asosan Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

4. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga, boshqa qonun hujjatlariga, Jamiyat Ustaviga, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha Komissiya 2015 yil 31 dekabrda yig'ilishining 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksiga muvofiq ishlab chiqilgan.

## **II. BOSH IJROCHI DIREKTORNI SAYLASH (TAYINLASH) VA UNING VAKOLATLARINI TUGATISH TARTIBI**

5. Jamiyatning Bosh ijrochi direktori Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori bilan uch yil muddatga saylanadi (tayinlanadi).

6. Jamiyat Ustaviga muvofiq yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, yoxud Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga asosan Jamiyatning Bosh ijrochi direktorini tayinlanishi, odatda, tanlov orqali saralash asosida amalga oshiriladi, bunda xorijiy menejerlar ishtirok etishlari mumkin.

7. Jamiyat Bosh ijrochi direktori lavozimiga nomzod Jamiyatga uning jinoiy javobgarlikka tortilganligi holati to'g'risida ma'lum qilishi shart.

8. Jamiyat Bosh ijrochi direktorini saylash (tayinlash) bo'yicha Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozlari (oddiy ko'pchilik) bilan qabul qilinadi.

9. Kuzatuv kengashi Bosh ijrochi direktor bilan uch yil muddatga shartnoma tuzadi va har yili uning vakolat muddatini uzaytirish to'g'risida qaror qabul qiladi. Shartnoma Kuzatuv kengashi raisi yoki Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolat bergan boshqa a'zo tomonidan imzolanaadi. Shartnoma, shu jumladan, Bosh ijrochi direktorning jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish, jamiyatning biznes-rejasining bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etish va boshqaruvning yillik hisobotlarini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga taqdim etish davriyligini o'z ichiga olishi kerak.

10. Bosh ijrochi direktor o'z mehnat shartnomasida ko'rsatilgan qat'iy belgilangan asosiy ish haqi olish huquqiga ega. Asosiy ish haqi miqdori Bosh ijrochi direktor bilan kelishilgan holda Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

11. Bosh ijrochi direktor asosiy ish haqiga qo'shimcha ravishda yil yakunlari bo'yicha, shu jumladan Jamiyat faoliyatining SMK va korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari bo'yicha qo'shimcha haq olish huquqiga ega.

12. Jamiyat Bosh ijrochi direktoriga to'lanadigan pul mukofotlari miqdori Jamiyat faoliyati samaradorligiga bevosita bog'liq bo'ladi.

13. Agar Bosh ijrochi direktor Jamiyat Ustavi yoki shartnoma shartlarini qo'pol ravishda buzgan bo'lsa, Kuzatuv kengashi u bilan tuzilgan shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli.

14. Kuzatuv kengashining Bosh ijrochi direktor bilan tuzilgan shartnomani muddatidan oldin bekor qilish to'g'risidagi qarori majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

15. Kuzatuv kengashi Jamiyat Bosh ijrochi direktori vakolatlarini tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, Jamiyat Bosh ijrochi direktor vakolatlarini boshqa shaxsga berish to'g'risidagi masala o'sha majlisda hal qilinishi yoki Kuzatuv kengashi Bosh ijrochi direktorni vaqtinchalik tayinlash to'g'risida qaror qabul qilishni boshqa majlisda qoldirilishi mumkin.

### **III. JAMIYAT BOSH IJROCHI DIREKTORINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI**

16. Jamiyat Bosh ijrochi direktori vakolatlariga Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlikning barcha masalalari tegishlidir, Jamiyat Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

17. Jamiyat Bosh ijrochi direktori qonun hujjatlari, Jamiyat Ustavi, mazkur Nizom, Jamiyat Bosh ijrochi direktori bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlari, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlarida belgilanadigan vakolatlar doirasida faoliyat yuritadi.

18. Jamiyat Bosh ijrochi direktori vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz faoliyat yuritish, davlat muassasalarida, mulkka egalik shaklidan qat'i nazar barcha tashkilot va korxonalarda Jamiyat manfaatlarini himoya qilish;
- Jamiyatning bank va boshqa moliya hujjatlariga birinchi imzo qo'yish huquqi bilan banklarda hisob-kitob, valyuta va boshqa hisobvaraqlarini ochish;
- Jamiyat hamkorlari, shuningdek boshqa tashkilotlar va korxonalar bilan bitimlar tuzish hamda shartnomalarni (kontraktlarni) imzolash;
- Jamiyat nomidan hujjatlarni imzolash;
- o'z vakolatlari doirasida Jamiyat mulki va pul mablag'larini tassarruf etish;
- xodimlarning shtat jadvalini belgilash va tasdiqlash;
- o'z vakolatlari doirasida xodimlarni ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, faoliyatlari samaradorligini baholash, ularga nisbatan ma'muriy jazolar qo'llash, mehnat va ijrochilik intizomiga rioya qilinishini ta'minlash;
- Kuzatuv kengashi qoshidagi Nomzodlik va mukofotlash qo'mitasi bilan birgalikda Jamiyat Korporativ maslahatchisi faoliyatining samaradorligini baholash, samaradorlik ko'rsatkichlari asosida mehnatga haq (barcha turdagi mukofotlar, qo'shimcha haqlar, ustamalar va mehnat ishtiroki koeffitsiyentlari) to'lanishini belgilash;
- O'zbekiston Respublikasining mehnat qonun hujjatlariga va normativ hujjatlarga muvofiq, Jamiyat xodimlariga mehnatga haq (barcha turdagi mukofotlar, qo'shimcha haqlar, ustamalar va mehnat ishtiroki koeffitsiyentlari) to'lanishini belgilash;
- Jamiyat tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi Nizomlar va Jamiyat xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;
- Jamiyat nomidan ishonchnomalar berish;
- Jamiyat biznes-risklari va Ijroiya organi javobgarligini sug'urtalanishini amalga oshirish;

- Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan ijro uchun buyruqlar, farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;
- Jamiyat ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, tasdiqlanishi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan ichki me'yoriy hujjatlar bundan mustasno;
- Qonun hujjatlari, Jamiyat Ustavi va mehnat shartnomasiga muvofiq boshqa huquqlar.

#### 19. Jamiyat Bosh ijrochi direktorining vazifalari:

- Jamiyatning joriy faoliyatiga uning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda rahbarlikni amalga oshirish, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;
  - davlat muassasalarida, mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha tashkilot va korxonalarda Jamiyat manfaatlarini himoya qilish;
  - Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlari ijro etilishini tashkillashtirish;
  - Jamiyat tarkibiy bo'linmalarining samarali o'zaro hamkorligini ta'minlash;
  - Jamiyatning shartnomaviy majburiyatlari bajarilishini ta'minlash;
  - Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalari ishlab chiqilishiga rahbarlik qilish, ular ijrosini tashkillashtirish va nazorat qilish;
  - Jamiyat faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya qilinishi ta'minlash;
  - Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkillashtirilishi, tegishli holati va shubhasiz to'g'riligini ta'minlash, yillik hisobot va boshqa moliya hisobotlarni, shuningdek aksiyadorlar, kreditorlar va boshqa ma'lumot oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim qilish;
  - yilning har choragida Kuzatuv kengashi oldida yillik biznes-rejaning bajarilishi to'g'risida hisobot berish;
  - Kuzatuv kengashi yoki Jamiyat ichki audit xizmati talabiga ko'ra, Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni to'sqinliksiz taqdim qilish;
  - nazorat organlariga davlat statistik hisobotlari to'liq va o'z vaqtida taqdim qilinishini ta'minlash;
  - Jamiyatning tijorat sirini o'z ichiga olgan axborotni saqlash, bunday axborotni uchinchi shaxslarga berish uning vazifalari doirasiga kirmaydigan holatlar bundan mustasno. Jamiyatning tijorat sirlariga tegishli ma'lumotlar ro'yxati Jamiyat Ijroiya organi tomonidan belgilanadi;
  - Jamiyat xodimlari tomonidan xizmat yoki tijorat sirini o'z ichiga olgan axborot saqlanishini ta'minlash;
  - Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlash, Jamiyat xodimlarining bilimlari, malakalari, tajriba va qobiliyatlaridan samarali foydalanish choralari ko'rish;
  - Odob-ahloq kodeksiga rioya etishni ta'minlash;
  - Jamiyat xodimlarining ijtimoiy sug'urtalanishi va mehnatini muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;
  - o'quv kurslari, seminarlar va boshqa tadbirlarda ishtirok qilish orqali o'z malakasi, shuningdek Jamiyat xodimlari malakalari oshirilishini ta'minlash;
  - jamoa muzokaralarida ishtirok qilish, jamoa shartnomalari va bitimlarni tuzishda Ish beruvchi sifatida qatnashish, jamoa shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish;
  - Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashiga o'z vakolatiga tegishli ishlar holati to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish;

- aksiyadorlarning amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan axborotni olish, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarida ishtirok qilish, dividendlar hisoblab yozish va to'lash bo'yicha barcha huquqlariga rioya qilish;
- Jamiyat tomonidan bitimlar tuzishda uning affillanganligi to'g'risida (holatida) Jamiyat Kuzatuv kengashini xabardor qilish;
- amaldagi qonun hujjatlari, Jamiyat Ustavi va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlari talablariga rioya qilish.

20. Jamiyatning muayyan huquqlari va vazifalari u bilan tuzilgan shartnomada belgilanadi.

21. Jamiyat Bosh ijrochi direktori funksiyalarining boshqa tashkilotlar boshqaruv organlaridagi lavozim bilan birga bajarilishi faqat Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

#### **IV. JAMIYAT BOSH IJROCHI DIREKTORINING JAVOBGARLIGI**

22. Jamiyat Bosh ijrochi direktori o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z vazifalarini bajarishda Jamiyat manfaatlar doirasida harakat qilishi va belgilangan tartibda javobgar bo'lishi kerak.

23. Jamiyat Bosh ijrochi direktori o'z faoliyatida har qanday munosabat va bitimlarda yoki "O'zIQMK" AJga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi masalasida har qanday qiziqish to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish majburiyatini oladi.

24. Jamiyat Bosh ijrochi direktorining ushbu lavozimda ishlash davrida Jamiyat faoliyatini yuritishda muammolarni (qiyinchiliklarni) yuzaga keltiradigan korxonalarni ta'sis etish yoki ular ta'sis etilishida ishtirok qilishga haqli emas. Jamiyat Bosh ijrochi direktori Jamiyatda lavozimga tayinlanganida bunday korxonalarda o'z ishtirokini to'xtatishi va ushbu ishtirokni to'xtatish to'g'risida Jamiyat Kuzatuv kengashini xabardor qilishi shart.

25. Jamiyat yoki joylashtirilgan Jamiyat aksiyalarining eng kamida bir foiziga ega bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatga yetkazilgan zararlar o'rnini qoplashi to'g'risida Jamiyat Bosh ijrochi direktori ustidan da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilishga haqli.

26. Agar jamiyatning Ijroiya organi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida Jamiyatga qasddan zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda Jamiyat direktorining yoki boshqaruv a'zolarining yoxud ishonchli boshqaruvchining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, Jamiyatning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda Jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

27. Bosh ijrochi direktor unga karshi bo'lishi mumkin bo'lgan da'volar va majburiyatlarni qoplashda Kuzatuv kengashi va Ijroiya organi javobgarligi sug'urtasidan foydalanish huquqiga ega.

28. Mazkur Nizom kuchga kirishi bilan "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining 2020 yil 25 maydagi, 2022 yil 29 iyundagi va 2023 yil 29 maydagi qarori bilan tasdiqlangan bilan "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJning Ijroiya organi to'g'risidagi Nizom" va unga kiritilgan barcha o'zgartirishlar o'z kuchini yo'qotadi.